



FOLKLOR NA'MUNALARINING KUNDALIK HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Zokirxonova Muzayyam Saydilloxon Qizi
Namangan Davlat Universiteti Jahon tillari fakulteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq ogzaki ijodi na'munalarining insonlar hayotidagi o'rni va ularning xalqlar orasida tarqalishi, folklor turlari, shuningdek folklorlarning yozma adabiyot rivojidadagi ro'li hamda badiiy adabiyotda xalq og'zaki ijodi na'munalaridan foydalanish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: folklor, doston, lapar, badiiy asar, poetika, syujet, urf – odat, janr, lirika, drama, g'oya.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ УЗБЕКСКОГО ФОЛЬКЛОРА

Аннотация: В данной статье рассматривается роль фольклора в жизни человека и его распространение среди народов, виды фольклора, а также роль фольклора в развитии письменной литературы и использование фольклора в художественной литературе.

Ключевые слова: фольклор, эпос, лапарь, художественное произведение, поэтика, сюжет, традиция, жанр, лирика, драма, идея.

SOME BASIC FEATURES OF UZBEK FOLKLORE

Annotation: This article discusses the role of folklore in human life and their distribution among peoples, types of folklore, as well as the role of folklore in the development of written literature and the use of folklore in fiction.

Keywords: folklore, epic, lapar, work of art, poetics, plot, tradition, genre, lyric, drama, idea.

Folklor na'munalari yozma adabiyot rivojida juda katta ro'l o'ynashi o'z isbotini allaqachon topib ulgurdi. Folklor namunalari badiiy asar yozishga ilk shu asosiy turtki bo'lgan. Negaki, birinchilardan bo'lib odamlar folklorda obrazlar, syujetlar, motivlar va tasviriy vositalardan foydalanishgan. Ayni paytgacha, bu buyuk ma'naviyat chashmasidan suv ichmagan, o'z asarlarida xalq og'zaki ijodi na'munalariga murojaat qilmagan hech bir yozuvchi yoki san'atkor bo'lmasa kerak.

Har bir xalq folklorining alohida ajralib turadigan asosiy jihati bu – ayni bir xalqning o'y-xayollari, kundalik turmush tarzi va ruhiyatining aks etishidir. Bular ajdodlar aql-zakovati, jasoratlaridan saboq olishning ham yana bir yo'li deyishimiz mumkin. Folklor asarlari asosan og'zaki tarzda yaratilib kuylangan va shu tarzda ko'plab aytimlar odamlar orasida tarqalgan. Folklor asarlarining og'zaki yaratilishi va og'zaki tarzda ijro etilishi ularning o'zgarmas barqaror shakllari – an'analarini



yuzaga keltirgan. Necha yuz yillar o'tsada ular shaklan va mazmunan deyarli o'zgarishga duch kelmagan.

Bundan bir necha yuzlab yillar ilgari ham folklor namunalari insonlar hayotida muhim ahamiyat kasb etganini "Farhod va Shirin", "Zarbulmasal" va boshqa asarlarda keltirilgan na'munalardan ham anglab olish qiyin emas. Mahmud Qoshg'ariyning "Zarbulmasal" asari folklor namunalarning yozma aksi namoyon bo'lgan eng qimmatli ma'naviy boyliklarimizdan biri bo'libgina qolmay, yozuvchining o'sha davr xalq hayoti va ular orasida tarqalgan xalq og'zaki poetik ijodi na'munalaridan qanchalik xabardor ekanini baholashga ham imkon beradi.

Bundan 20 -30 yillar ilgari ham folklorlar o'rganilganmi yoxud ular nashr etilganmi? -degan savol tug'ilish tabiiy. Albatta, o'sha davrlarda ham nashrlar va xalq og'zaki ijodi namunalari ustida tadqiqotlar bo'lgan, lekin shuni aytish joizki, u nashrlar hozirgidek mukammal to'g'ri bo'lmagan. Ularda juda ko'p qisqartirishlar va asl ma'no yoki pozitsiyasini buzib talqin qilishlarni uchratishimiz mumkin bo'lgan.

Bunga yaxlit misollar T. Mirzayev tomonidan yozilgan O'zbek folklori darsligida ham ko'plab keltirilgan, "...millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shigi bo'lmish "Alpomish" dostonidagi poyga epizodida ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Mustaqillikdan oldingi yillardagi nashrlarda «bog'langan band»dan Rajabxo'ja purning yordamida xalos bo'lgan Qorajonga qarata aytilgan:

Dam bu damdir o'zga damni dam dema,
Qoldim deb Qorajon, sira g'am yema, – so'zlari
«Otning aytayotgan so'zi» tarzida berilgan”.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan millat ma'naviyati va kitobxonlikni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilayotgan ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «O'zbek xalq ijodi yodgorliklari»ning 100 jildligi nashr etish yo'lga qo'yildi. Bu loyihaning amalga oshishi shubhasiz mamlakatimiz ma'naviy hayotida ulkan voqea bo'ladi.

Ayni globallashuv davrida, tilimiz dinimiz eng asosiysi ma'naviyatimizga solinayotgan tahdidlar ham dolzarb muammolardan sanaladi. Yosh avlod tarbiyasining yetukligi va ularning ma'naviyatini oshirishga alohida e'tibor qaratish birlamchi vazifalarimizdan biridir. O'z-o'zidan bunda folklor namunalarning ham o'rni beqiyos ekanligini bolaga ilk kunlaridoq aytiladigan "Alla"ning orqali ham bilish qiyin emas. Allada ona o'zining va butun bir oilaning mehr muhabbatini kuyga soladi.

Bolalarning aqliy, ruhiy, axloqiy kamol topishi ona allasi bilan uzviy bog'liq. Allada vatanparvarlik, insonparvarlik, xushaxloqlilik kabi fazilatlar asosiy o'ringa qo'yuvchi satrlar bola shaxsining tarbiyalanishida muhim rol o'ynaydi. Zero, bolaning ma'rifatli allalar tinglab voyaga yetishi kelgusida uning ma'naviy axloqiy yetuk shaxs bo'lib kamol topishiga yordam beradi.



Bolalar folklor namunalaridan biri “Oq terakmi, ko’k terak?” o’yiniga ham to’xtataladigan bo’lsak, mazkur o’yin ham bolaning irodasini mustahkam qilishda o’z ta’sirini ko’rsatadi. Shu bilan birga o’yin zamirida bolani atrofdagilar bilan uyushishga, ko’pchilik bilan o’zaro kelishib hurmat bilan birdamlikda harakatga chorlovchi xususiyatlar mavjud. Xalq pedagogikasining bir qismi bo’lmish bolalar folklori va folklorning boshqa turlari ham doim inson manfaati, uning ma’naviy, ruhiy va jismoniy kamolini doim birinchi o’ringa qo’yib kelgan. Bu shuni ko’rsatadiki, komil avlod tarbiyasi, ularni har xil hurujlardan himoyasi va albatta folklor rivoji yo’lida xoh maktabgacha ta’lim bo’lsin, xoh o’rta ta’lim yoki oliy ta’lim bolsin bola tarbiyasida doim folklorga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Jamoaviy ijodning takrorlanmas turi hisoblanuvchi Folklor xalq orasida og’izdan og’izga o’tib yashayveradi. Vaqt o’tkan sayin folklor asarlari yangi hayotning xususiyatlari bilan boyiydi. Lekin qanchalik o’zgarishlarga uchramasin xalq og’zaki ijodi doim xalqni ulug’lab uning buguni va kelajagini o’zida namoyon qiladi. Buni oddiygina ertaklar misolida ham ko’rishimiz mumkin, masalan sehrli ertaklarda go’zal ayollar obrazini yaratish bu xalqning qanchalik ideal fikrlashiniga emas, balki, o’zbek ayoliga xos eng yaxshi fazilatlarni umumlashtirilganligini ham ifodalaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, o’zbek folklori yaratilgandan to bugungi kunga qadar faqat ezgulikka xizmat qilib , katta va kichiklarning ma’naviyatini yuksaltirishda, milliy anana va qadriyatlarni avloddan avlodga etkazishda beminnat ko’makdosh vazifasini bajarib kelmoqda.

REFERENCES

1. Islom Karimov. “ Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”. Toshkent : Ma’naviyat, 2008.
2. T. Mirzayev, Sh.Turdimov, M. Jo’rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov. “O’zbek Folklori” (2020),